

ALGORITMLAR ISHLAB CHIQISH METODLARI VA ULARNING TAHLILI

Hasanova Dilafro 'z Bo 'ronovna

Buxoro davlat pedagogika instituti, "Aniq fanlar" kafedrasi o 'qituvchisi

Annotatsiya. Hozirda axborot-texnologiyalar dasturlarni loyihalashda algoritmlarni sodda, tushunarli, xatosiz, aniq qadamlarda tezkor natija beradigan algoritm tuzish muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada berilgan masalani algoritmini tuzish uchun loyihalash texnikasi asosida qadamlar ketma-ketligida ko 'rib chiqish va turli metodlar bilan ishlab chiqish, tahlil qilish va algoritmlarning kompyuter qurilmalari samaradorligiga ta'siri ochib berilgan.

Kalit so 'zlar: algoritm, chiziqli, tartiblash, izlash, samaradorlik, Big O, blok-sxema.

МЕТОДЫ РАЗРАБОТКИ АЛГОРИТМОВ И ИХ АНАЛИЗ

Ҳасанова Дилафруз Буроновна

Бухарский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры точных наук

Аннотация: В настоящее время при разработке программ информационных технологий важным фактором является создание алгоритмов, простых, понятных, безошибочных и дающих быстрые результаты на конкретных шагах. В данной статье представлен пошаговый обзор на основе методики проектирования создания алгоритма для заданной задачи и разработки различными методами, анализ и влияние алгоритмов на эффективность компьютерных устройств.

Ключевые слова: алгоритм, линейный, поиск, поиск, эффективность, Big O, блок-схема.

ALGORITHM DEVELOPMENT METHODS AND THEIR ANALYSIS

Hasanova Dilafruz Buronovna

Bukhara State Pedagogical Institute, Teacher of the «Exact Sciences» department

Abstrakt. Currently, in the design of information technology programs, it is an important factor to create algorithms that are simple, understandable, error-free, and give quick results in specific steps. In this article, a step-by-step review based on the design technique for creating an algorithm for the given problem and development with different methods, analysis, and the impact of algorithms on the efficiency of computer devices are revealed.

Key words: algorithm, linear, searting, search, efficiency, Big O, flowchart.

Kirish. Bugunda hammaga ayonki, axborot texnologiyalarning zamonaviyiligi, samaradorligi va qulayligi har bir sohadan tortib ijtimoiy hayotgacha bo 'lgan asosiy ustivorlikni belgilaydi. Garchi, buni anglasakda lekin bu qurilmalarning va dasturlarning asosida yotgan algoritmlar, ularning ishslash tartibida nimalar hisobga olinganligi to 'g 'risida har doim ham bilavermaymiz. Buyuk Britaniyalik olim Devid Xarel o 'zining "Algoritnika:hisoblash ruhi" kitobida "Algoritnika bu kompyuter fanining bir bo 'limi emas. Bu informatika fanining o 'zagi..." deb ta 'riflaydi. Algoritmlashni o 'rganish nafaqat kompyuter fanlarini bilishga turtki beradi, shuningdek muammolarni hal qilish strategiyasini ishlab chiqishni ham o 'rgatadi. Berilgan masalaning dasturini tuzganda bu kompyuter parametrlariga qay darajada ta 'sir qilishi va bu jarayonlarni qay tartibda foydali jihatlarini oshirish ishlab chiqilayotgan algoritmgan bog 'liq. Villanova universiteti professori Anany Levitin "Algoritmlarning tahlili va turlari" ilmiy nashrida algoritmlar ikkita muqobil variantga ko 'ra tavsiylaydi; birinchisi asosan berilgan masalaning turiga qarab tavsiyaydi va ularni lineary(chiziqli), searting(tartiblash), searching(izlash) turlariga bo 'lib o 'rganish bo 'lsa, ikkinchi alternativa esa bu algoritmlarni loyihalash texnikasi asosida tashkil qiladi.

Bizning darslik va adabiyotlar birinchi variantga ko 'ra algoritmlarni o 'rganish va o 'rgatish keng tarqalgan bo 'lib, buning ham o 'z navbatida ijobjiy tomoni turli algoritmlarni samaradorligini taqqoslash darhol namoyon bo 'ladi va kamchilik sifatida loyihalash texnikasi sifatida muammo turlariga urg 'u berilishini aytib o 'tishimiz mumkin. Algoritmlarni loyihalash bugungi kompyuter fanlarini tezkorlik bilan rivojlanayotgan bir paytda eng yaxshi loyihalash usuli bo 'lib, tuzuvchini aniq bir qolipga solib qo 'ymasdan uning tanqidiy fikrlashini va yaratuvchanligini shakllantiradigan metod hisoblanadi. Biz quyida ko 'rib chiqadigan algoritmlarni loyihalash texnikasiga asoslangan qadamlar bo 'lib, qo 'yilgan masalani to 'g 'ri va samarali yechib berish usullarini ochib beradi.

Qo 'yilgan masalaning turiga qarab algoritmlar ishlab chiqiladiki, bitta muammoning yechimi bir necha

usulda yechish mumkinki, qat’iy bir usulni belgilab olish xatodir. Lekin algoritmlarni ishlab chiqishda quyidagi bosqichlarga amal qilish berilgan masalani samarali hal qilishga olib keladi.

Amaliy jihatdan algoritmlarni loyihalashdan oldin berilgan loyihani to‘liq tushunish muhimdir. Berilgan masalani to‘liq tushunib olinganligiga ishonch hosil qilinib, keyin qaror qabul qilish kerak.

Muammoni to‘liq tushunib yetgandan keyin, algoritm uchun mo‘ljallangan hisoblash qurilmasini imkoniyatlarini ko‘rib chiqish kerak. Biz kompyuter xotirasi yoki protsessor haqida o‘ylashimiz kerakmi? Agar siz o‘rganish bosqichida algoritm tuzayotgan bo‘lsangiz bu haqda qayg‘urmasangiz ham bo‘ladi. Lekin, aniq bir masalalarni hal qilishga mo‘ljallangan, katta ma‘lumotlar bazasi bilan ishlaydigan algoritmlar haqida gapirsak, albatta buni inobatga olishimiz kerak. Masalan, biz ro‘yxat elementlari bilan ishlaydigan algoritm yozsak, berilgan ro‘yxatning 20-indeksida turgan elementgacha chiziqli qidiruv (linary reserch) bilan tuzilgan algoritmda yigirma marta xotira va protsessor o‘rtasida borib kelish jarayonini amalga oshiradi. Bu esa o‘z navbatida aytish mumkinki, katta hajmli ro‘yxat elementlarida indeks katta raqamli bo‘lsa ancha ko‘p resurs ya’ni protsessor va xotira xizmatini egallaydi.

Bugungi kunda biz sekin ishlashi bilan noliydigan kompyuterlarimiz protsessori chastotasi $F=1.10\text{GHz}$ ya’ni bu kompyuter 1 daqiqada $1.10*10^9$ (milliard) amal bajaradi degani. Bu ham aslida yuqori ko‘rsatkich bo‘lsada bugunda bu tezlikdagi kompyuterlar ishlash samaradorligi past hisoblanadi. Chunki grafik imkoniyatlari yuqori va internet bilan bog‘liq dasturlarda ishlashimiz tufayli bu parametrlar sifatli kompyuter xizmatini ko‘rsatib bera olmasligi mumkin. Algoritmlar ishlash tezligini o‘lchab beruvchi mezon bu Big O (Big Order complexity-katta buyurtma murakkabligi) hisoblanadi. Bu algoritmdagi eng minimal tezlikni o‘lchaydi. O‘lchov birligi opreatsiyalar soni hisoblanadi. Chiziqli qidiruv algoritm uchun $O(n)$, Binar qidiruv (Binary search) algoritmlarda $O(\log 2N)$ bilan o‘lchanadi.

Keyingi asosiy qadam muammoni aniq hal qilish yoki taxminiy hal qilish o‘rtasida bir qarorga kelishdir. Aniq yechimga ega algoritmlardan tashqari yana algoritmgaga yaqinlashi algoritmi deb ataluvchi loyihalar ham borki, masalan, kavadrat ildizlarni chiqarish, aniq integralarni baholash kabilar shular jumlasidandir. Bu darajadagi masalalar ichki murakkabligi tufayli masalani yechimini sekinlashtirishi mumkin.

Ba‘zi algoritmlar sodda ma‘lumotlar bilan ishlasa, ba‘zilari murakkab ma‘lumotlar tuzilmasiga bog‘liq va o‘z navbatida zukkolikni va aqlni talab qiladi. Ma‘lumotlar tuzilmasini tegishli tahlil qilib, algoritmlarni loyihalansa, sifati yaxshilanadi.

Eng asosiy qadamlardan biri bu-algoritmlarni loyihalash hisoblanadi. Algoritmlarni loyihalash bu (strategiya yoki paradigma ham deyiladi) turli sohalarda qo‘llanilishi qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan algoritmkic muammolarni hal qilish umumiyy yondashuvi hisoblanadi. Nima uchun bu texnikaga urg‘u berishimiz kerak. Bu soha hali yangi masalalarni yechishda ko‘rsatmalar beradi. Talaba bir qolipga tushib qolmasdan yangilik qilishga, uni amaliy sinab ko‘rishga imkon beradi.

Algoritmlarni yaratgandan so‘ng uni qaysi bir tarzda belgilab olishimiz kerakki, u bosqichma-bosqich bo‘lsin hamda tushunarli. Odatta, ikkita usul juda keng tarqalgan: birinchidan, tabiiy tildan foydalanish. Bu juda ommalashgan bo‘lsada ba‘zi hollarda ya’ni boshqa tildagi foydalanuvchilar uchun bu tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Ikkinci keng tarqalgan usul, pseudocode- ya’ni tabiiy til va zamonaviy dasturlash tilining uyg‘unligidagi algoritmlar ifodalash usuli. Bu usul aniq bir qonun-qoidalarga bo‘ysunmaydi va dasturchilar uchun tushunarli.

Hisoblash texnikasining rivojlanish bosqichlarida flowchart-blok-sxemalarda ifodalangan algoritmlar keng tarqalgan edi. Bular algoritmik qadamlarni geometrik shakllarda ifodalagan edi. Bu ifodalash usuli faqat oddiy algoritmlar uchun qulay bo‘lib, murakkab algoritmlarni ochib berish qiyinchilik tug‘dirardi. Bugungi kunda bu turdagil algoritmlarni deyarli uchratmaymiz.

Algoritmnini ishlab chiqqandan keyin biz uni to‘g‘riligini isbotlashmiz kerak. Ya’ni cheklangan vaqtida, chekli qadamlar bilan to‘g‘ri natija berishini isbotlashmiz kerak. Ba‘zi algoritmlarni isbotlash juda oson, ba‘zilari juda murakkab bo‘lishi mumkin. To‘g‘riligini isbotlashning eng keng tarqalgan usuli matematik induksiyadan foydalanish usulidir. Chunki algoritmlar iteratsiyasi bu kabi isbotlar uchun zarur ketma-ketlikni ta’minlaydi. Algoritm noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsangiz uning ma‘lumotlar tuzilmasi yoki dizayn texnikasi bo‘yicha qadamlarni qayta ko‘rib chiqishingiz kerak.

Algoritmnini to‘g‘riligini tekshirib ko‘rgandan keyin eng asosiysi uning samaradorligi hisoblanadi. Vaqt samaradorligi algoritm qanchalik tez ishlashini ko‘rsatsa, joy samaradorlik qancha qo‘shimcha xotira olganligini ko‘rsatadi. Algoritmlarning yana bir muhim jihatni ularning oddiyligidadir. Chunki soddarroq algoritmlarni dasturlash oson bo‘lib bu o‘z navbatida dasturlash jaroyonidagi xatolarni oldini oladi. Agar algoritm samaradorligi, soddaligi yoki umumiyligi sizni qoniqtirmasa yuqorida aytib o‘tilgan qadamlarni qayta ko‘rib chiqishga to‘g‘ri

keladi.

Xulosa. Algoritmlarni loyihalashda yuqorida berib o'tilgan qadamlar ularning to‘g’ri tuzilishini, sodda va tushunarligini hamda kompyuter resurslaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda, uni dasturlash jarayonidagi xatolarni kamaytirib, tushunarli dastur tuzishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anany Levitin. Introduction to the design & analysis of algorithms. 2005
2. Anvar Narzullayev. <https://www.youtube.com/watch/algortimdarslari>
3. R.Robert Gajevski. Algorithms and programming flowcharts and flowgorithm.us.edu.pi
4. Kurt Mehlhom. Algorithms and programs. Resources.mpi-inf.mpg.de
5. Jurayeva N.O. Fundamentals of Organizing Students’ Independent Work Using Mobile Applications. Child Studies in Asia-Pacific Context (CSAC). 2022, 12 (1); 255-266
6. Жўраева Н.О. Организация самостоятельного обучения по предмете «информационно-коммуникационные технологии. International Conference onNew Scientific Methodologies (online-conferences). -327-331
7. Jo’rayeva N.O. Mobile Softwareanwendungen zur Organisation unabhangiger Bildung// Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. Vol. 2, Issue 1.5 (2022), – P. -661-664.
8. Jurayeva N.O. Specific aspects and principles of the method of organizing independent education of students. Actual problems of modern science, education and training”. №8, Xorazm, 2022. – P. 23-27
9. Н.О.Жўраева. Таълим жараёнида мустақил ўкув фаолиятини ташкил этиш бўйича айрим кўрсатмалар. Таълим ва инновацион тадқиқотлар. №3, 2021 йил. -170-176 б
10. Sameer Punjal.Fibonacci Algorithms. Eskeype.github.io.2018